

**ADABIYOT TA'LIMIDA MUAMMOLI O'QITISHNING O'QUVCHI
SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.***Zarina Fayziyeva Otobek qizi**Navoiy viloyati Navbahor tumani 10-umumiy o'rta ta'limgak mabadii ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Adabiyot ta'limalda muammoli texnologiyalarning qo'llanishi o'quvchining erkin fikrashi, badiiy asar mazmun mohiyatini chuqur anglab yetishi, adabiy tushunchalarni, yozuvchi va uning hayoti ijodiga bog'liq jarayonlarni to'liq o'zlashtirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'limgak texnologiyasi adabiyot ta'limalda amaliy jihatdan hali o'z o'zini to'liq namoyon qilgani yo'q. Bugungi kunda adabiyot ta'limalda muammoli texnologiyalarni qo'llash borasidagi metodik ko'rsatmalar nisbatan kamdir. Biz ushbu texnologiyani "Oq kema" qissasi misolida tatbiq etishga harakat qilamiz.

Аннотация: Использование проблемных технологий в литературном образовании важно для свободного мышления школьника, глубокого понимания сущности художественного произведения, полного овладения литературными концепциями, процессами, связанными с творчеством писателя и его жизнью. Технология проблемного обучения еще не в полной мере проявила себя в практическом плане в литературном образовании. На сегодняшний день существует сравнительно немного методических указаний по использованию проблемных технологий в литературном образовании. Попробуем применить эту технологию на примере рассказа «Белый корабль».

Abstract: The use of problematic technologies in literary education is important for the student's free thinking, deep understanding of the essence of the artistic work, and full mastery of literary concepts, processes related to the creativity of the writer and his life. Problem-based learning technology has not yet fully manifested itself in practical terms in literature education. Today, there are relatively few methodological guidelines for the use of problematic technologies in literature education. We will try to apply this technology on the example of the story "The White Ship".

Kalit so'zlar: Muammoli o'qitish, muammoli ta'limgak, muammoli vaziyatni, oq kema, Chingiz Aytmatov, asar, debat, pedagog, o'qituvchi, usul.

Ключевые слова: Проблемное обучение, проблемное образование, проблемная ситуация, белый корабль, Чингиз Айтматов, работа, диспут, педагог, учитель, метод.

Key words: Problem teaching, problem education, problem situation, white ship, Chingiz Aitmatov, work, debate, pedagogue, teacher, method.

Kirish

Xozirgi ta’lim tizimida samarali o‘qitish texnologiyalaridan biri – bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Pedagogik adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Muammoli o‘qitishning mohiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishdan iborat.

Natija:

Ramziy obrazlarga boy bo‘lgan “Oq kema” qissasi 7-sinf adabiyot darsligida o‘quvchilarga taqdim etilgan, eng qiziqarli va eng ta’sirchan asarlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adib Chingiz Aytmatov tomonidan yaratilgan ushbu asar bola qalbidagi beg‘uborlik, mehrga tashnalikni va ezgulikni kuylaydi. Qissa qahramoni hayotda mehr ko‘rmagan, uning bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilish mumkin bo‘lgan kishisi yo‘q. Shu bois u hayotda ko‘rmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramzlardan topishga urinadi. Ibrohim Haqqul qissa haqida taassurotlarini aytar ekan shunday deydi: “Hayotni to‘g‘riroq mushohada qilishga kirishgan chog‘larimni hali-hamon eslayman. O‘sanda nechundir dilda ismsiz g‘ussa, kundan kunga uzlatga undovchi bir yolg‘izlik qad rostlay boshlagan. Chingiz Aytmatovning “Oq kema” sidagi bolakayga o‘xshab o‘ksik nigoh ila atrofmuhitga qaraganlarim, kazokazo kimsalarning chiroyli, balandparvoz, biroq mag‘zibo‘m-bo‘sh gaplaridan tamoman bezgan kunlarim va holatlarimni aslo unutolmayman...”. “Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida o‘rtaga tashlangan falsafiy muammolar: ertak va hayot, hayot va nafosat, inson va tabiat, moziy va kelajak, zulm va shafqat, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik va vahshiylik, yozuvchi va voqelik – bularning hammasi adibning o‘tkir qalami orqali kishilarning yuksak axloqiy ideallari nuri-la munavvar etilgan. Bu qissa juda katta badiiy emotsiyonal kuchga ega bo‘lib, Ch.Aytmatov ijodida yana bir yangi sahifa ochdi”, - deydi Komil Yashin.

Uzviyashtirilgan davlat dasturi bo‘yicha Ushbu asar uchun 3 soat o‘quv soati ajratilsan bo‘lib, bunda dastur bo‘yicha o‘quvchilar ushbu mavzudan quyidagilarni egallashlari talab qilib belgilangan: **16-18-mavzu. Ch. Aytmatov. “Oq kema” qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)** Adib haqida qisqacha ma‘lumot. – Oq kema qissasida ta’sirchan, beg‘ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg‘ularning bobosi Mo‘min chol tabiatida ham namoyon bo‘lishi. Go‘zal insoniy tuyg‘ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog‘lik og‘ir ekanligi bola, chol va O‘rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta’siri. Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o‘rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko‘rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg‘anch dunyonи tashlab ketishi insonning ma’naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi. Ona bug‘u

obrazi va uning ramziy xususiyati. Nazariy ma'lumot. Ramziy obrazlar. Ushbu qissadagi ramzlarni tushunish, qahramon xarakteridagi nozikliklarni ilg'ash va unda berilgan mazmun mohiyatni anglab yetish ba'zan katta yoshli kishi uchun ham biroz murakkablik qiladi. Shu bois 7-sinf o'quvchilariga "Oq kema" qissasini o'qitayotganda qissa mazmunini ochib berishga qaratilgan, o'quvchilarning erkin fikrlashlari uchun imkoniyat yaratuvchi o'qitishning yangi muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish mavzu yaxshi o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Muammoli vaziyatni hosil qilish uchun o'qituvchi, avvalo, o'quv materialidan shunday vaziyatni topa olishi lozim. Ma'lumki, har qanday savol muammo bo'lib qolmaydi. Muammo ilmiy savol bo'lib, u bir necha asosli javoblarga egaligi bilan savoldan farqlanadi. Muammoli ta'limning o'ziga xos shakllaridan biri "Debat" usulidir. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, bunda jamoaning har bir a'zosi o'zining burch va majburiyatlariga ega bo'ladi, kim g'alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarining argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o'qituvchi belgilab beradi. O'quvchilar bilan debat o'tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak:

1. Debatlar ko'p narsaga o'rgatadi (Chunki debat o'tkazishdan maqsad faqat g'alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).
2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o'zagi bo'lib, noto'g'ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto'g'ri yo'ldan ketishning oldini oladi) .
3. O'zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o'zga o'quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo'lsa, uning obro'sini to'kish maqsadga muvofiqemas. Chunki debat g'oyalalar va bu g'oyalarning to'qnashuvidan iborat).

"Debat" usulidan foydalanish uchun, avvalo, haqiqiy debatga loyiq muammo bo'lishi lozim. "Debat" da o'rganilayotgan muammoning har ikkala tomoni ham asosli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi shoxdor ona bug'u obrazi misolida "Debat" metodining amalga oshirilish jarayoni tavsiya etiladi. Darsning maqsadi: o'zaro fikr almashish, "Oq kema" qissasidagi shoxdor ona bug'uning qilgan ishiga to'liq tavsif berish, o'z qarashlarini, nuqtai nazarini asosli bayon etish, aniq, ravon, tushunarli tilda fikrlarni yetkazib berish ko'nikmasini rivojlantirish.

Muammoli o'qitish texnologiyasida muammoli vaziyatni hal etishning turli darajalari mavjud. Jumladan:

- 1) o‘qituvchi muommoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;
- 2) o‘qituvchi muommoni qo‘yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi;
- 3) o‘quvchilar o‘zлari muommoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

Biz yuqorida qo‘llagan texnologiyada muommo o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladi va uning yechimi o‘quvchilar bilan birgalikda hal qilinadi. Lekin bugun jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv materialidan o‘quvchilarning o‘zлari muommoni topib, o‘zлari uning yechimini aniqlasinlar, chunki bunday usul bugungi talab qilinayotgan yetuk intellektni shakllantirishda eng samarali yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni bunda o‘quvchi berilgan o‘quv materiali yuzasidan yana ham chuqurroq mulohaza yuritishi talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil o‘zlashtirish va erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiyot o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini ta’minalash bilan birga o‘quvchining faolligini oshiruvchi, uni mustaqil va asosli fikrlashga o‘rgatuvchi muhim omildir. Adabiyot ta’limida muammoli o‘qitish o‘quvchining shaxsiy sifatlarini tarbiyalshga yordam beradi. Bugun jahon ta’lim tizimida, ayniqsa iqtisod ta’limida keng qo‘llanilayotgan ushbu texnologiyalarni adabiyot ta’limiga joriy qilish, uning amaliy ko‘rinishlarini ishlab chiqish adabiyot o‘qitish metodikasi oldida turgan muhim vazifalardandir. Zero, adabiy pedagogik ijodkorlik adabiyot darslarining estetik yaxlitligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘qliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 2010.
2. Omonov H va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2012.
3. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006 22.
4. To‘qliyev B., Niyozmetova R. va b. Til adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
5. Niyozmetova R. Adabiy ta’limda kompyuter va adabiyot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1- qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
6. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011..
7. Egamberdiyev R. “Oq kema” – mehr timsoli. Til va adabiyot ta’limi. - T.: 2015. 4-son.